NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-9]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

IJTIMOIY XAVFSIZLIKNING FALSAFASI1

G‘ ulomov Abdullajon G‘ ofurjon o‘ g‘ li
Namangan davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
Sotsial.nauki@gmail.com

Annotatsiya: *Yangi O‘ zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotida xavfsizlik muammolarining fanlararo tadqiqi dolzarb axamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy global muammolarning keskinligi, siyosiy mojarolarning echimida kuch omiliga moyillik ijtimoiy xavfsizlikning ilmiy tadqiqida kontseptual yondoshuvni talab etadi. O‘ zbekistonning geosiyosiy holati, tabiiy resurs zahiralari, axolisining etnokonfessional madaniyati dunyoning yirik davlatlarini o‘ ziga tortmoqda. Milliy xavfsizlikni mazmun mohiyati, ustuvor jihatlarida ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlash omilining muhokamasi maqolaning maqsadidir. Muallif ijtimoiy xavfsizlik va milliy xavfsizlikning uyg‘ unligini ijtimoiy tartib madaniyati bilan falsafiy asoslagan.*

Kalit so‘ zlar: *Xavfsizlik, xavf-xatarlar, ijtimoiy xavfsizlik, ma’naviy xavfsizlik, himoyalanganlik kafolatlari*

ФИЛОСОФИЯ СОЦИАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация: *Междисциплинарные исследования вопросов безопасности приобретают все большее значение в социальном развитии нового Узбекистана. Серьезность современных глобальных проблем, тенденция к применению силы при разрешении политических конфликтов требуют концептуального подхода к научному изучению социальной безопасности. Геополитическая ситуация Узбекистана, его природные ресурсы и этноконфессиональная культура населения привлекают ведущие страны мира. Цель статьи – обсуждение содержания, сущности и приоритетных аспектов национальной безопасности, фактора обеспечения социальной безопасности. Автор связывает единства социальной и национальной безопасности с культурой общественного порядка.*

Ключевые слова: *Безопасность, угрозы, социальная безопасность, духовная безопасность, гарантии защиты.*

PHILOSOPHY OF SOCIAL SECURITY

Abstract: *The interdisciplinary study of security issues has become highly significant for the social development of the «New Uzbekistan.» The intensity of contemporary global challenges coupled with a tendency to rely on the use of force to resolve political disputes and conflicts—necessitates a conceptual approach to the scientific study of social security. Uzbekistan’s geopolitical position, natural resource reserves, and the ethno-confessional culture of its population attract the interest of major global powers. The purpose of this article is to examine the role of ensuring social security within the broader context and priorities of national security. The author links both social and national security to the foundational concept of a «culture of social order.»*

Keywords: *Security, danger, threats, social security, spiritual security, guarantees of protection.*

Kirish

Zamonaviy global muammolarning echimida sobiq Ittifoqning parchalanishi, ya’ni «sovuq urush»ning tugashi bilan mustaqil davlatlarning suveren huquqlari, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy jihatdan kafolatli himoyasini taqozo etmoqda. O‘ zbekistonning geosiyosiy holati, tabiiy resurs zahiralari, axolisining etnokonfessional madaniyati bilan dunyoning yirik davlatlarini o‘ ziga tortmoqda. Shu ma’noda milliy xavfsizlikni mazmun mohiyati, ustuvor jihatlarida ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlashga oid ilmiy qarashlarning muhokamaga qo‘ yish maqolaning maqsadidir. Chunki, halqaro keskinlikni ortib borishi, davlatlararo o‘ zaro ishonchni susayishi, bevosita xarbiy to‘ qnashuvlar ehtimolligini xavfsizlik nuqtai nazaridan taxlilini olg‘ a suradi.

1 Ushbu maqola Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi innovatsion rivojlanish agentligi ko'magida tayyorlangan (Grant No. Il-9124104620) Namangan davlat texnika universitetida ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida tayorlandi

Dunyoning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy madaniy manzarasida yirik davlatlarning geosiyosiy iqtisodiy munosabatlari jiddiy harbiy to‘ qnashuv, lokal urushlar bilan alangalanishi milliy xavfsizlikning kafolatli ta’minlash masalasi real zaruriyatga aylanmoqda. Muammoning murakkabligi huquq sub’ektlari tomonidan halqaro me’yor va tartiblarga amal qilish, dunyo xalqlari suvereniteti, o‘ zga umuminsoniy huquqlarni xurmat qilishga ehtiyoj ortib bormoqda. Biz dunyoning eng qadimiy madaniyatiga ega Isroil va Eron urushi, unga AQShining aralashuvi, Rossiya va Ukrainaning xarbiy harakatlari iqtisodiy talofatlar, axolining qirilishi bilan vaziyat xavfli tus olmoqda. Xavfsizlik asoslari serqirra muammo bo‘ lib, turli fanlar hamkorlikda olimlarning ilmiy tadqiqotlarini talab etmoqda [9, 62 b]. Shu ma’noda Rossiya ilmiy hamjamiyati 1998-2008 yillarda xavfsizlikka oid 33 jildli fundamental ilmiy tadqiqotlarni nashr qilishga erishdi [2, 8 b].

Adabiyotlar taxlili

MDH davlatlarining ijtimoiy fan vakillari milliy xavfsizlik muammolarini fundamental tadqiqotlari uchun ijodiy kuchlarni birlashtirish, muammoni faol tadqiqotida kompleks xavfsizlik dasturiy yo‘ nalishlarini aniqlash, davlat, jamiyat va shaxs munosabatlarida yuz berishi kutilayotgan tahdidlar, xavf-xatarlarning sababiyatni aniqlashga ustuvor yo‘ nalish deb hisoblaydilar. Olimlarning ikkinchi guruhi fuqarolarni ijtimoiy-iqtisodiy texnogen falokat oqibatlaridan muhofaza qilish xavfsizligi, ijtimoiy-ma’naviy xavfsizlikka doir maxsus ilmiy texnik, ijtimoiy mezon va tamoyillar doirasida monitoring va diagnostikasi yo‘ nalishida ish olib borishi kuzatilmoqda. Ayni vaqtda milliy xavfsizlik muammolari ijtimoiy fanlarda yopiq mavzulardan keng ilmiy jamoatchilikning ishtirokida muhokama mavzusiga aylanishi ilmiy demokratik o‘ zgarish, deb hisoblash mumkin. Darhaqiqat, fuqaroning turmush kechirishi, mehnat faoliyatining xavfsizligi, uning turli tuman hayot faoliyatiga ichki va tashqi xavf-xatarlardan muhofaza qilish davlatning ustuvor funktsiyasidir.

Xavfsizlik kategoriyasi ijtimoiy-gumanitar fanlarda xarbiy siyosiy muammo sifatida to‘ la ijtimoiy-falsafiy taxlil etilmagani, bir tomondan, davlat, jamiyat va shaxs munosabatlarini to‘ la qamrab olishi bilan olimlarning hamkorligini talab etishi ikkinchi tomondan muammoning kompleks tadqiqini tasdiqlaydi. «Davlat xavfsizligi» va «Milliy xavfsizlik» tushunchalarining ilmiy muomalada ko‘ llash ham kontseptual jihatga egadir. O‘ zbekiston davlat mustaqilligi, uning sarhadlarining daxlsizligi, fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy madaniy tinch hayotini kafolatli himoyalashda O‘ zbekiston hukumatining muhim huquqiy me’yoriy asoslarni shakllantirildi [6]. O‘ zbekiston Prezidenti tomonidan davlat xavfsizligini yanada takomillashtirishning Mudofaa doktrinasi, Davlat xavfsizligi kontseptsiyasi yanada takomillashtirildi [7].

O‘ zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining «Mudofaa va xavfsizlik»ka oid siyosati «...davlat suvereniteti va xududiy yaxlitligini, axolining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi» degan tamoyil bilan mustahkamlangan [8, 76 b]. Mintaqaga bo‘ lgan geosiyosiy-geoiqtisodiy munosabatlarning o‘ sib borishi, mintaqa davlatlarini milliy davlatchiligiga oid muammolarda asossiz da’volar sharoitida geopolitik diagnostika ilmiy tadqiqotlar asosida nafaqat harbiy, balki siyosiy-iktisodiy xavf-xatarlarni aniqlash, ularning oldini olishga doir xavfsizlik choralarini ko‘ rilmoqda. Raqamlashgan jamiyatda taxdidlarni yangi turi diniy terrorizm, kiberxavfsizlik ham muhim amaliy texnologik axamiyat kasb etmoqda.

Ma’lumotlar va metodlar

Maqolani tayyorlashda horijiy ilmiy adabiyotlar, yirik siyosiy arboblarning ma’ruza va ilmiy maqolalarini ijtimoiy falsafiy taxlillari amalga oshirildi. Ilmiy maqola odatda umumnazariy metod va sotsiologik tadqiqotlarga tayansa-da, xavfsizlik muammolari ilmiy-mantiqiy, tarixiy, ijtimoiy taxlil va kuzatishlarning natijalarini o‘ zida mujassam etadi. Shu bilan birga xavfsizlik muammolari umumiylik, alohidalik va xususiylik kontekstida xalqaro, mintaqaviy va respublika manfaatlari doirasida ko‘ rib chiqilishi tabiiy holdir. Mualliflar masalaning mohiyatini yoritishda solishtirish qiyosiy usullardan ham foydalandilar.

Ilmiy taxlil va natijalar

Rossiya xavfsizligi doirasida 33dan ortiq jildda ilmiy fundamental tadqiqotlar amalga oshirilishi kontekstida «O‘ zbekiston xavfsizligi» muammosi ilmiy tadqiqot predmeti sifatida ijtimoiy fanlarda fundamental ilmiy tadqiqotlar ilk bora muhokamaga qo‘ yilmoqda. Milliy xavfsizlik – O‘ zbekiston davlatining suveren xalqaro va milliy huquqlarini o‘ zga davlatlar tomonidan tan olinishi, ichki va tashqi siyosatda xalqaro munosabatlarda tenglik va erkinlik tamoyillarida davlatning huquq maqomini xurmat qilinishi, davlat chegaralarining daxlsizligini e’tirof etish orqali xavfsizlik va mudofaa dasturiy yo‘ l yo‘ riqlari ishlab chiqiladi. Davlat xavfsizligidan farqli milliy xavfsizlik deganda jamiyat va shaxs hayotiy faoliyatining xavfsizligi davlat tomonidan ta’minlanishi nazarda tutiladi. Keyingi yillarda milliy xavfsizlik davlat sarhadlariga harbiy tajovuzdan himoyalanish tushunilsa, axolini terrorizmdan muhofazasi, ma’muriy huquqbuzarlik yoki jinoiy xatti-harakatlarni batamom bartaraf etish, davlat boshqaruvi, iqtisodiy va ijtimoiy hayotga taxdidlarni bartaraf etish,

ekologik, texnogen, energetik, oziq-ovqat, tabiiy resurslar bilan boglik muammolar doirasini ham qamrab olmoqda. Boz ustiga, milliy xavfsizlik mintaqaviy narkotrafik, uyushgan jinoyatchilik, tabiiy ofatlarga qarshi kurash bilan uyg‘ unlashib ketmoqda. O‘ zbekiston hukumati mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashda qo‘ shni davlatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy madaniy, chegara muammolarini o‘ zaro kelishuvlar asosida yuridik tartibga solish orqali xavfsizlikni ta’minlamoqda.

Xavfsizlik kategoriyasining negizida «xavf» tushunchasi ijtimoiy borliqda odamlarning hayot faoliyatiga jiddiy salbiy ta’sirning kelib chiqishi, fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy, xatto ommaviy zararli holatni oldini olishga aloqador xatarni nazarda tutiladi. Fikrimizni Namangan shahri 3 kichik tumani hududida sovun ishlab chiqarish tsexining tungi vaqtlarda ishlashi tufayli ommaviy zaharlanish, yoshlar orasida nafas olish yo‘ llari xastaliklarining ortishi bilan izohlanadi. O‘ zbekiston tadbirkorlikka berilgan imkoniyatlardan tadbirkorning suiste’moli bilan ishlab chiqarish zaharli chiqindilari havoning ifloslash, axolining sog‘ lig‘ i bilan xavfli vaziyatni vujudga keltirmoqda. Natijada, tuman hududi fuqarolari, ayniqsa, Prezident va sport maktabi, litsey va gimnaziya o‘ quvchilarining kuchli zaharlanishi xavfli vaziyat hisoblanadi.

Xavfsizlik hududda sovun ishlab chiqarish tsexining faoliyati tadbirkorning ma’naviy-axloqiy jihatdan saviyaning etishmasligi, tungi vaqtlarda zaharli gazlarni hududga tarqatib, asta sekinlik bilan odamlarni og‘ ir xastaliklarga chalinishi sog‘ liqni saqlashda ob’ektiv muammodir. Masalaning nozikligi hudud ta’lim tizimi o‘ quvchilarining ayol va bolalar organizmida nafas olish yo‘ llarini izdan chiqarib, nogironlikka sabab bo‘ lishi tibbiy tasdiqlanmoqda. Inson hayoti va sog‘ lig‘ iga zararli ta’sir va tahdidlar milliy amaldagi qonunlarda o‘ ta xavfli jinoyatlar turiga kirishi nuqtai nazardan qaralsa xavfning xatarli jihati oydinlashadi. Biz xavfsizlik asoslarining kontseptual jihatida xavf, xavfli vaziyatni aniqlashda MDH olimlarining ilmiy tadqiqot natijalari bilan dalillaymiz [4, 7 b].

Ilmiy adabiyotlarda xavfsizlik kategoriyasi 1190 yildan boshlab fuqarolarning tinch-totuv hayotini ta’minlash orqali turli tuman ichki va tashqi xavf-xatarlardan xalos qilinganligi tushunilgan. «Davlat xavfsizligi» davlatning ijtimoiy tartib va jamoatchilikning tinch va xotirjamligini ta’minlash ma’nosida 1881 yil Aleksandr III tomonidan qabul qilingan me’yoriy aktda belgilangan [5, 15 b]. Fikrimizcha bu me’yorlarda ijtimoiy xavfsizlikka qaratilgan o‘ z davri uchun muhim talablar e’tiborga olingan. Tadqiqotchi H. Abulqosimov muammoning ta’rifida «Ijtimoiy xavfsizlikning mumtoz mazmuni mamlakat va axolining ijtimoiy soxadagi manfaatlarini himoya kilish, jamiyatda ijtimoiy tuzilmalar va munosabatlar, xayot ta’minoti tizimlari va kishilarni ijtimoiylashtirish, xozirgi va kelajak avlodlar extiyojlari taraqqiyotiga muvofik turmush tarzini rivojlantirish buyicha chora-tadbirlar yig‘ indisini» ifodalash deb hisoblaydi [1, 28 b].

Xavfsizlik o‘ z mohiyatiga ko‘ ra xalqaro, mintaqaviy yoki alohida olingan davlatning milliy muhofazalanganlik darajasidir. Davlatning taxdidlardan kafolatli himoyalanganligi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ekologik, keyingi vaqtlarda diniy terrorizm va narkotrafik bilan murakkab tizimni hosil qilmoqda. BMT halqaro xavfsizlik, ShHT mintaqaviy havfsizlik muammolarini faol muhokamasi bilan samarali hamkorlik ishlarni uyushtirmoqda. Mintaqada tabiiy resurslarning zahiralari bo‘ lishi, ekologik xavfsizlik bilan birga tabiiy texnogen xatarlarning oldini olishga doir chora tadbirlarni ko‘ rishni talab etmoqda. Mintaqada ichimlik suv muammosi dolzarb muammoga aylanib bormoqda. Markaziy Osiyo bo‘ yicha mutaxassislar mintaqa ddavlatlarining ichki siyosiy beqarorligi millatlararo, ijtimoiy qatlamlararo munosabatlarning taranglashuvi, axolining asosiy qismini kambag‘ alligi, odamlarning daromadidagi keskin bo‘ linish, yoshlar orasida ishsizlik, korruptsiya, davlat boshqaruvida samaradorlikka ehtiyojning ortib borishi kabilarni xavfsizlikka taxdidlar doirasiga kiritganlar. Darhaqiqat, Tojikiston va Qirg‘ izstonda GES qurilishi bilan birga, Afg‘ oniston tomonidan Qo‘ shtepa kanalini qazilishi mintaqada suv muammosini jiddiylashtiradi. Ayni vaqtda mintaqa davlatlari orasida chegara muammolarini uzil-kesil hal etish millatlararo nizo va mojarolarning oldini oladi. Mintaqaning geopolitik joylashuvi yirik davlatlarning mintaqa davlatlari bilan yaqin aloqalar o‘ rnatish uchun o‘ zaro raqobatini ham yodda tutish lozim. Shu ma’noda ijtimoiy xavfsizlik o‘ z navbatida milliy xavfsizlik bilan sababiy bog‘ lanish xususiyatiga ham egadir. Biz huddi shunday fikrlarni Rossiya olimlari ilmiy tadqiqotlarining natijalari bilan dalillaymiz [3, 18 b].

Xavfsizlik muammosi Sho‘ rolar tuzimi davrida harbiy jamoaviy xarakterda iqtisodiy maqsadli bo‘ lsa, zamonaviy xalqaro munosabatlarda «Okeanizm» yoki «Kontinentalizm» kontseptsiyalvarida ma’naviy-g‘ oyaviy, diniy terrorizm va ekstremizm, kiber tahdidlar bilan o‘ ta xatarli holatlarni keltirib chiqarmoqda. Shu ma’noda ijtimoiy xavfsizlik falsafasi muammosining ilmiy tadqiqi istiqbolli kam ishlangan falsafiy tadqiqot yo‘ nalishlardan biriga aylanmoqda. Ijtimoiy xavfsizlik fuqarolarning turmush tarzi, hayot faoliyatining barcha sohalarini qamrab olishi bilan ijtimoiy tartibni barqarorligini ta’minlashni talab etadi. Davlatning muhim funktsiyasi fuqaroning xavfsizligi bo‘ lib, uning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotiy faoliyatiga bo‘ ladigan taxdidlardan himoyalanganlik holati tushuniladi. Bu hol markaziy va mahalliy davlat organlari tomonidan qonun ustuvorligi nuqtai nazardan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish bilan birga fuqaroning amaldagi konstitutsion va o‘ zga fuqarolik huquqlarini ijtimoiy munosabatlarda xurmat kilish bilan xavfsiz xayotiy faoliyatni ijtimoiy jihati ta’minlanadi. Shu ma’noda inson hayoti va sog‘ ligiga tahdidlar o‘ ta xavfli jinoyatlar toifasiga kiritiladi, fuqaroning mulkiy va nomulkiy huquqlari davlat tomonidan kafolatli tartibga solinadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari globallashuvi sharoitida kiberxavfsizlik ijtimoiy xavfsizlikningasosiy yo‘ nalishiga aylanmoqda

[10, 324 b]. Bu hol fuqaroning halqaro va milliy huquqiy doirasida xavfsizligini ta'minlash o‘ zaro bir hil aloqadorlik jihatiga egadir.

Xulosalar

Xavfsizlik shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarining barcha jihatlarini o‘ zida mujassam etuvchi ijtimoiy davlat suverenitetiga aloqador xalqaro va milliy huquqiy munosabatlarning huquqiy jihatidir. Davlatning xavfsizligi manfaatlar to‘ qnashuvini oldini olish, tahdidlarni bartaraf etish, o‘ zaro manfaatli kelishuv va o‘ zga hamkorlik haqidagi me'riy normalarning nazariya va amaliyoti hisoblanadi. Davlat xavfsizligi harbiy, iqtisodiy yoki madaniy jihatdan xavf-xatarlarni bartaraf etish orqali kutilayotgan siyosiy tanglikni oldini olishda o‘ z ifodasini topadi.

Ijtimoiy xavfsizlikning falsafasi jamiyat hayotining barqaror taraqqiyotini ta'minlashda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-axloqiy xavf-xatarlarning oldini olish bilan fuqaroning himoyalanganlik kafolatlarini belgilab beradi. Yangi O‘ zbekiston fenomenining mazmun mohiyatida «Inson manfaatlarining ustunligi», «Xalqning davlatdan roziligi» tamoyillari fuqarolarning munosib turmush kechirishi, hayotiy farovonligini kafolatlash, deganda turli tuman xavf-xatarlardan muhofaza qilinishidir. Bu hol davlat boshqaruv barcha bo‘ g‘ inlarining faol tizimli funktsionallik darajasini yuqori reytinglar me'yorida ishlashini talab etmoqda. Shu ma'noda xavfsizlik ijtimoiy hayotning barcha sohalarini barqaror taraqqiyoti ostida ehtimolligi ko‘ zda tutilgan tahdidlarga qarshi turish, bardoshlilik immunitetini shakllantirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abulqosimov H. P. O‘ zbekistonda ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashning ayrim masalalariG‘ G‘ Ekonomika i finanso‘ (Uzbekistan). –2019. –№ 2(122) –B.27-35

2. Bezopasnost Rossii. Pravovo‘ e, sotsialno-ekonomicheskie i nauchno-texnicheskie aspekto‘ . Entsiklopedicheskiy slovar-spravochnik G‘ pod obh. red. V. L. Manilova. - Moskva: Znanie, 2008. - 527 s.

3. Belikova A. V., Komarov M. P. Sotsialnaya bezopasnost i ee mesto v sisteme natsionalnoy bezopasnostiG‘ G‘ Nauchno-texnicheskie vedomosti SPbGPU.Gumanitarno‘ e i obo‘ estvenno‘ e nauki. –2015. –№1(215) –S.18-23.

4. Ekimova I.A. Bezopasnost jiznedeyatelnosti: ucheb. posobie. –Tomsk: El Kontent, 2012. –S. 7. (192 s.)

5. Metelyov S.E. Natsionalnaya bezopasnost i prioriteto‘ razvitiya Rossii: sotsialno-ekonomicheskie i pravovo‘ e aspekto‘ . -M.; 2006. –270 s.

6. O‘ zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991 yil 2 noyabr, 278-sonli «O‘ zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik xizmati to‘ g‘ risida» QaroriG‘ G‘ https:G‘ G‘ lex.uzG‘ uzG‘ docsG'1027996

7. O‘ zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 martdagi PF-5379-sonli «O‘ zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘ g‘ risida» FarmoniG‘ G‘ https:G‘ G‘ kknews.uzG‘ uzG‘ cs_docs_laws

8. O‘ zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent.: O‘ zbekiston. 2023. – B.76.

9. Chijikov E. N., Lukin V. N. Bezopasnost kak predmet issledovaniyaG‘ G‘ Credo New. –2017. –№4 (92). –S. 62-72

10. Xidirov S. N. Ijtimoiy xavfsizlikka neyrolingvistik dasturlash texnologiyalarining ta'siri: taxliliy yondoshuv va echimlar G‘ G‘ NamDU Ilmiy Axborotnoma. –2025. –№ 8. –B. 322-326.